

**“TASDIQLAYMAN”**

“Milliy PR-markaz” DUK direktori  
D.Samandarova  
“ ” 2022-yil

**“Milliy PR-markazi” DUK xarid komissiyasining yig‘ilish  
BAYONI № \_\_\_\_\_**

**Komissiya raisi:**

D.Samandarova - Direktor

**Komissiya a’zolari:**

- |              |   |
|--------------|---|
| B.Shakirov   | - Targ‘ibot masalalari bo‘yicha direktor o‘rbosari;                 |
| A.Ravshanov  | - Moliyaviy masalalar bo‘yicha direktor o‘rbosari;                  |
| M.Saydametov | - Bosh buxgalter - bo‘lim boshlig‘i v.v.b;                          |
| I.Madrimov   | - Tadbirlar o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i;                            |
| N.Samiyeva   | - Xorijiy va media loyihalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i;       |
| N.Serdina    | - Raqamlı targ‘ibot bo‘limi boshlig‘i;                              |
| S.Raximova   | - Kontent bo‘limi (Uzbekistan.travel jurnali tahririysi) boshlig‘i; |
| A.Nurmanov   | - Xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i;                                       |

.

**KUN TARTIBI:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-apreldagi 32-slon sayyor yig‘ilishi Bayonining 4-band 2-xatboshisida nazarda tutilgan “Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklarining 3D o‘lchamli vizual ko‘rinishini tiklash va qisqa metrajli videoroliklarni suratga olishga oid shartnoma tuzish huquqi uchun xizmatlarni yetkazib beruvchini (ijrochini) tanlash bo‘yicha tanlov hujjatlarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash.

“Milliy PR-markazi” DUK direktori D.Samandarova raisligida 2022-yil \_\_\_\_\_ -kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-apreldagi 32-slon sayyor yig‘ilish Bayonining 4-band 2-xatboshisida nazarda tutilgan “Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklarining 3D o‘lchamli vizual ko‘rinishini tiklash va qisqa metrajli videoroliklarni suratga olishga oid shartnoma tuzish huquqi uchun xizmatlarni yetkazib beruvchini (ijrochini) tanlash bo‘yicha tanlov hujjatlarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash maqsadida “Milliy PR-markazi” DUK xarid komissiyasining (keyinchalik-Komissiya) yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yig‘ilish kun tartibiga muvofiq, Komissiya a’zolariga yurtimizning turistik salohiyatini xorijiy va milliy OAVlarda, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etish maqsadida qisqa metrajli videoroliklarni suratga olishga oid

shartnama tuzish huquqi uchun xizmatlarni yetkazib beruvchini (ijrochini) tanlash bo'yicha tanlov hujjatlari loyihalari ko'rib chiqish va muhokama uchun taqdim etildi.

Komissiya raisi (D.Samandarova) tomonidan tanlov hujjatlaridagi shartlardan kelib chiqib:

-yurtimizning turistik salohiyatini xorijiy va milliy OAVlarda, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib etish uchun, qisqa metrajli videoroliklarni suratga olish qiymatini 200 000 000 (ikki yuz million) so'm qilib belgilash;

-yuqorida bildirilgan takliflар yuzasidan Komissiya a'zolaridan o'z fikr mulohazalarini bildirishlari so'raldi. Komissiya a'zolari tomonidan taklif yuzasidan e'tiroz va qo'shimchalar bildirilmaganligi sababli ushbu masala ovozga qo'yildi.

### **Ovoz berish natijalari:**

"ROZIMAN" – 9 nafar;

"QARSHIMAN" – yo'q;

"BETARAF" – yo'q.

Ovoz berish natijalariga asosan "Milliy PR-markazi" DUK xarid komissiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Yurtimizning turistik salohiyatini xorijiy va milliy OAVlarda, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib etish maqsadida qisqa metrajli videoroliklarni suratga olish hamda keng targ'ib etishga doir tanlov hujjatlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Yurtimizning turistik salohiyatini xorijiy va milliy OAVlarda, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib etuvchi qisqa metrajli videoroliklarni suratga olishga oid shartnama qiymati 200 000 000 (ikki yuz million) so'm miqdorida belgilansin;

3. Moliya-iqtisodiyot bo'limi yetakchi mutaxassis (Z.Turobov) ilova qilingan hujjatlarni 5 kun ichida xarid.uzex.uz saytida tanlov e'lon qilsin.

### **Komissiya a'zolari:**

B.Shakirov

A.Ravshanov

M.Saydametov

I.Madrimov


N.Samiyeva



N.Serdina



S.Raximova



A.Nurmanov



**Kotib:**

Z.Turobov



“TASDIQLAYMAN”  
“Milliy PR-markazi” DUK  
direktor

D.M.Samandareva  
“ ” 2022-yil

## TANLOV HUJJATLARI

(“Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklari haqida qisqa metrajli videoroliklarni suratga olish ishlarini bajarish huquqini beruvchi shartnomalar tuzish uchun)

**Buyurtmachi:** “Milliy PR-markazi” DUK

**Kiritildi:**

Moliya-iqtisodiyot bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Z.Turobov

**Kelishildi:**

Direktor o‘rnibosari

A. Ravshanov

### Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari tuzilmasi:

- 1) Eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha e’lon berish uchun ma’lumot;
- 2) Hisob-kitoblar valyutasi va to‘lov tartibi to‘g‘risida ma’lumot;
- 3) Tanlovda qatnashish uchun taklif qaysi tilda tayyorlanishi zarurligiga oid talablar;
- 4) Ishtirokchilarga Tanlov hujjatlarining qoidalariga oid tushuntirishlar berishning tartibi, boshlanishi va tugatilish sanalari;
- 5) Agar mahsulot (ish, xizmat) uchun muqobil variantlarga yo‘l qo‘yilsa, lotni almashtirish uchun muqobil takliflarni baholash tartibining tavsifi;
- 6) Texnik topshiriq.
- 7) Ishtirokchilar takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi.
- 8) Shartnomalar loyihasi

#### **1. Tanlov o‘tkazilishi haqida e’lon berish uchun ma’lumot**

<b>1.1. Xizmatning tavsifi:</b>	Markazning buyurtmasiga asosan “Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklarining 3D o‘lchamli vizual ko‘rinishini tiklash va qisqa metrajli videoroliklarni suratga olish Shartnomaning umumiyligi summasi QQS bilan birga 200 000 000 (ikki yuz million) so‘mni tashkil etadi
<b>1.2. Xizmat narxi:</b>	
<b>1.3. Tanlov o‘tkaziladigan joy manzili</b>	Buyurtmachining ofisida: Toshkent, Mirobod tumani, Oybek, 18-uy
<b>1.4. Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1) Faoliyat yuritish huquqi uchun ruxsatnomaning (zarur hollarda), shuningdek mahsulotlar (xizmatlar)ning xalqaro standartlarga javob berishini tasdiqlovchi amaldagi sertifikatning mavjudligi;</li><li>2) Davlat tashkilotlari bilan ishslash tajribasining mavjudligi;</li></ol>

- 3) Davlat budgetiga soliqlar va majburiy to‘lovlар bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;
- 4) O‘zining shaxsiy professional asbob-uskunalariga, texnik vositalariga hamda malakali mutaxassislariga ega bo‘lish.

<b>1.5. Aloqa qiluvchi shaxslarning to‘liq ism shariflari, lavozim va manzili:</b>	M.Nurullaeva “Moliya-iqtisod” bo‘limi yetakchi mutaxassisi, tel.: +99893-500-05-59; Z.Turobov – “Moliya-iqtisod” bo‘limi yetakchi mutaxassisi, tel.: +99893-565-08-92; <i>Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybек, 18-uy.</i>
<b>1.6. Takliflarni qabul qilishning oxirgi sanasi va vaqtি:</b>	Boshlanishi: " " 2022-yil Tugash vaqtি: " " 2022-yil

### **1.7. Tanlovda ishtirok etish to‘g‘risidagi taklifga qo‘yiladigan talablar:**

- 1) Tanlov ishtirokchilariga o‘z takliflarini ishtirokchining vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda taqdim etishlari tavsiya qilinadi.
- 2) Taklif e'londa ko‘rsatilgan shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnik va tijorat takliflari bo‘lishi kerak.
- 3) Taklifda ishtirokchilar davlat xaridlari ob‘ekti bo‘lgan eskiz, rasm, fotosurat, namuna, tovar namunalarini taqdim etishlari mumkin.
- 4) Tanlov ishtirokchisi bitta lot bo‘yicha faqat bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega.
- 5) Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan ma’lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun javobgardir.
- 6) Tanlov ishtirokchisi o‘zi taqdim etgan taklifni bunday takliflarni taqdim etish uchun belgilangan muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o‘zgartirish huquqiga ega emas.
- 7) Takliflarni qabul qilish portalga qo‘ylgan e'londa nazarda tutilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.
- 8) Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga, tanlov to‘g‘risidagi e'londa nazarda tutilgan shaklda, tanlov hujjatlari qoidalariga aniqlik kiritish to‘g‘risida so‘rov yuborish huquqiga ega.

### **1.8. Maxsulotlarning umumiyligi: 2 ta videorolik**

**1.9. Shartnoma muddati:** 2022-yil 31-dekabrgacha, ishni bajarish muddati Shartnoma imzolangan kundan boshlab boshlab 60 kun.

**1.10. Shartnomaning umumiyligi bahosi:** QQS bilan 200 000 000 (ikki yuz million) so‘m.

## **2.Hisob-kitoblar valyutasi va to‘lov tartibi**

- 2.1. To‘lov (shartnoma) valyutasi - so‘m;
- 2.2. To‘lov tartibi: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi qonuniga (47-modda) muvofiq shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar shartnomalar reestriga kiritilganidan keyin 15% miqdorida oldindan to‘lov, qolgan 85 % ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga binoan buyurtmachi tomonidan ishlar qabul qilinganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida to‘lanadi.

## **3. Tanlov qatnashish uchun taklif qaysi tilda**

### **tayyorlanishi zarurligiga oid talablar:**

3.1. Ishtirokchining taklifi o‘zbek tilida tayyorlanadi va taqdim etiladi.

### **4.Ishtirokchilarga Tanlov hujjatlarining qoidalariga oid tushuntirishlar berishning tartibi, boshlanishi va tugatilish sanalari**

4.1. Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga, Tanlov haqidagi e'londa ko'rsatilgan shaklda, Tanlov hujjatlarining qoidalariga aniqlik kiritish to'g'risida so'rov yuborish huquqiga ega.

4.2. Buyurtmachi so'rovni olgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida, agar so'rov takliflar yuborishning e'londa belgilab qo'yilgan oxirgi muddatidan kamida ikki kun avval kelib tushgan bo'lsa, Tanlov hujjatlari qoidalariga oid tushuntirishlarni yuborishi shart.

### **5.Agar mahsulot (ish, xizmat) uchun muqobil variantlarga yo'l qo'yilsa, lotni almashtirish uchun muqobil takliflarni baholash tartibining tavsifi**

5.1. Muqobil xizmat variantlariga yo'l qo'yilmaydi.

### **6. Texnik topshiriq**

UMUMIY TALABLAR	
Ishlab chiqarishning maqsadi	“Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklarining 3D o‘lchamli vizual ko‘rinishini tiklash va qisqa metrajli ikki dona videorolikni suratga olish
Maqsadli auditoriya	Keng jamoatchilikka mo’ljallangan
Roliklardan foydalanish	Videoroliklarni quyidagi hollarda qo‘llash mumkin: 1. Ko‘rgazmalarda, konferensiyalarda, uchrashuvlarda; 2. Internetda: veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar; 3. Mahalliy va xorijiy LED ekranlarda; 4. Mahalliy va xorijiy telekanallarda.
Xronometraj	2-3-daqqaq
Til	Videorolik uch tilda ishlab chiqiladi: 1. O‘zbek tili 2. Rus tili 3. Ingliz tili
Kontentning o‘ziga xosligi	1. Plagiat ishlatmasdan yangi loyihani ishlab chiqish. 2. Kontent qismi uchun to‘liq javobgarlik muallifga yuklatiladi.
Fayl formati	4k(60fps); 2k(60fps); FullHD 1920-1080(25fps);
Videorolikning ovozli va musiqiy dizayni	O‘zbek, ingliz, rus tillarida dublyaj, rolik uchun kuy bastalash va musiqiy bezak, “Cubase” formatida ovozlashtirish.

Ijrochini tanlash bosqichlari	1. Mualliflik loyihalarini taqdim etish (Portfolio). 2. Arxeologik yodgorlik tadqiqotchi tamonidan tasdiqlanganligi haqida to‘liq ma’lumot. 3. Ushbu rolik uchun ishlab chiqilgan barcha kontseptsiya (ssenariy, sinopsis, vizualniy raskadrova.) taqdimoti. 3. Batafsil xarajatlar smetasini taqdim etish.
Videorolikning qisqacha tavsifi	“Poykent” va “Varaxsha” arxeologiya yodgorliklarining kelib chiqish tarixi va ularning hayotimizda tutgan o‘rnini
<b>TEXNIK PARAMETRLAR</b>	
Videorolik yo’nalishi	3D grafikasi asosida videorolik
Talab qilingan dastur	Autodesk 3dMaxs; Maya; Adobe after effect; Adobe premiere;
Videorolik Formatini	4k(60fps); 2k(60fps); FullHD 1920-1080(25fps);
Tekstura	Individual chizilgan (Hing Qualitiy) (High Quality) Modellar reflash(Normaliy Map) (Normal Map)
Personajlar	Aholi o’sha davr liboslarida har bir personaj harakatda(50 ta odam)
Simulyatsiyalar	Kun va tun Olov Shamol Tabiat (daraxtlar, maysalar, qushlar) Suv (Ariq, ko’l va daryolar)
Studiya	(ovozi, shovqin, musiqiy bezak, dublyaj, uchta tilda titrlash)
Grafik dizayn	(shu jumladan infografika) Slayder Filtrlar Frost
<b>LOYIHANING QIYMATI</b>	
200,0 mln so‘m	
<b>ISHLARNI BAJARISH MUDDATI</b>	
Shartnoma imzolangan kundan boshlab 60 (oltmis) kun.	

## **7. Ishtirokchilar takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi.**

7.1. Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng, Xarid komissiyasi Tanlov hujjalarda ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklifi kelib tushgan holda, tanlov o‘tkazilgan hisoblanadi.

7.2. Tanlovda bitta ishtirokchi qatnashgan bo‘lsa yoki hech kim qatnashmagan bo‘lsa, Tanlov haqiqiy emas deb topiladi. Bunday holda, buyurtmachi yana aynan bir xil shartlarda va tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nisbatan bir xil mezon va talablar bilan qayta tanlov o‘tkazishi shart.

7.3. Agar Tanlov savdo hujjalari shartlarini o‘zgartirmasdan takroriy Tanlov o‘tkazilsa, takroriy Tanlov to‘g‘risida e’lon takliflarni qabul qilish muddatidan kamida

besh kun oldin joylashtiriladi. Agar mahsulot (ish, xizmat) uchun shartlarni, baholash mezonlarini va talablarini o'zgartirish zarur bo'lsa, Xarid komissiyasi asoslantirilgan tegishli qaror qabul qiladi.

7.4. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni topshirish tugagan kundan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak.

7.5. E'londa Tanlov o'tkaziladigan vaqt sifatida belgilangan vaqtda, takliflarni baholash bo'yicha Xarid komissiyasi tomonidan takliflar komissya a'zolarining elektron raqamli imzo kalitlari bilan ko'rib chiqiladi.

7.6. Taklif barcha hujjatlarning mavjudligi va ularning rasmiy lashtirilishining to'g'riliqi tekshiriladi. Tegishli hujjatlar bo'limgan taqdirda, Xarid komissiyasi ushbu taklifni ko'rib chiqish va baholamaslik huquqiga ega.

7.7. Taklifni taqdim etgan ishtirokchi qonunchilikda belgilangan talablarga javob bermasa, yoki Tanlov ishtirokchisining taklifi Tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa Xarid komissiyasi bunday taklifni rad etadi.

7.10. Xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni Tanlov g'olibini aniqlash uchun Tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlarga asoslanib baholaydi.

7.11. Tanlov takliflarini baholash uchun Xarid komissiyasi ekspertlar va Xarid komissiyasi a'zolaridan iborat baholash guruhini tuzishga haqlidir.

7.12. Taklif qonunchilik va Tanlov talablariga javob bersa, tegishli ravishda rasmiy lashtirilgan deb tan olinadi.

7.13. Tanlov takliflarini baholash paytida Xarid komissiyasi talabgorlardan ularning takliflariga nisbatan tushuntirishlar talab qilishga haqli.

7.14. Tanlov taklifi tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi.

7.15. Xarid komissiyasi talabgorlarning malakaviy ma'lumotlarini o'rganadi va tanlov taklifining texnik va narx qismiga baho beradi. Tanlov taklifining texnik va narx qismini baholash bo'yicha Tanlov komissiyasining qarori Tanlov g'olibini aniqlash to'g'risidagi bayonnomada qayd etiladi.

7.16. Tanlov hujjatlari va taklifida ko'rsatilgan mezonlarga asosan shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi Tanlov g'olibi hisoblanadi..

## **8. Shartnoma loyihasi:**

### **Shartnoma**

(3D animasion videorolik ishlab chiqarishga oid)

Toshkent sh.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2022-y.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi "Milliy PR-markazi" DUK (keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor Samandarov D.M. bir tomonidan va keyingi o'rnlarda "Ijrochi" deb nomlanuvchi \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ asosida ish olib boruvchi \_\_\_\_\_ ikkinchi tomonidan, keyinchalik matnda birgalikda va/yoki alohida "TOMONLAR" deb yuritiladi, 2022-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_ dagi "Milliy PR-markazi" DUK xarid komissiyasi yig'ilishining \_\_\_\_ -son bayoniga muvofiq maxsus axborot portalı (<https://exarid.uzex.uz/uz>) da e'lon qilingan tanlov natijalari bo'yicha (lot raqami\_\_\_\_\_) mazkur haq evaziga xizmat ko'rsatish (ish bajarish) to'g'risidagi Shartnoma (keyingi o'rnlarda – Shartnoma)ni quyidagilar haqida tuzdilar:

## **1.SHARTNOMA MAZMUNI**

1.1.Ushbu Shartnomaga ko‘ra Ijrochi Buyurtmachining ko‘rsatma va topshiriqlariga binoan Buyurtmachi uchun 3D animasion videorolik ishlab chiqarishga oid ishlarni (keyingi o‘rinlarda “Ishlar” deb yuritiladi) bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Buyurtmachi esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

1.2.Ijrochi tomonidan bajariladigan ishlarning tasnifi Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi Texnik topshiriq (1-Ilova)da belgilanadi.

1.3.Shartnoma doirasida yaratilgan media mahsulotlar va boshqa mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan mualliflik huquqiga Buyurtmachi egalik qiladi.

1.4.Ijrochining ushu Shartnomaga ko‘ra barcha olinayotgan (videorolikda ko‘rsatilayotgan) obyektlarning tarixiy dalilligi (asl ko‘rinishi qayta tiklash) tarixshunos olimlarning xulosalariga asoslangan bo‘lishi va bu xulosalar Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga original nusxada taqdim etilishi shart.

## **2.ISHLAR NARXI VA HISOB-KITOB TARTIBI**

2.1. Shartnoma imzolangandan va O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga (47-modda) muvofiq shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlar shartnomalar reestriga kiritilganidan keyin, Buyurtmachi har bir buyurtma uchun 3 (uch) kun ichida bajariladigan ishlarni Ijrochining hisob raqamiga mazkur Shartnomaning 2.3.bandida ko‘rsatilgan summaning 15 % i miqdorida oldindan to‘lovni o‘tkazib beradi. Summaning qolgan 85 % qismi taqdim etilgan hisob-fakturaga asosan, hisob faktura taqdim etilgan sanadan boshlab 5 (besh) kun ichida to‘lanadi.

2.2. Mazkur Shartnoma yuzasidan to‘lovlar Buyurtmachi tomonidan Ijrochining hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2.3. Shartnomaning umumiy bahosi **QQS bilan \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_)** so‘mni tashkil etadi.

2.4. Ishlarni bajarish muddati mazkur Shartnomaning 2.1.bandiga muvofiq Shartnoma imzolangan kundan boshlab 60 (oltmis) kunni tashkil etadi.

## **3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1.Ijrochining majburiyatları:

3.1.1. Shartnomaning 1.2.bandida nazarda tutilgan ishlarni vijdonan va o‘z vaqtida bajarish;

3.1.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Ishlarni bajarish uchun ruxsat beruvchi hujjat(lar)ning nusxasini taqdim etish;

3.1.3. Shartnoma mazmunining hamda Buyurtmachidan Ijrochiga ma’lum bo‘lgan boshqa har qanday ma’lumotlarning qat’iy maxfiyligiga rioya qilish.

3.1.4. Buyurtmachiga Ijrochining Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga har qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risida, shuningdek Ishlarni bajarishdan Buyurtmachi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar to‘g‘risida xabar berish;

3.1.5. Agar biron bir sababga ko‘ra Ishlarni bajarishning iloji bo‘lmasa, bu haqda darhol Buyurtmachiga xabar berish;

3.1.6. Ishlarni bajarish jarayonida Ijrochi Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda yoki Buyurtmachining talablariga javob bermaydigan ishlarni bajarilganda, Buyurtmachining talabiga ko‘ra aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

3.2. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachidan ushbu Shartnomaga ko‘ra Ishlarni bajarganlik uchun haq o‘z vaqtida to‘lanishini talab qilish;

3.2.2. Ishlar bajarilishini ta‘minlash uchun uchinchi shaxslarni jalg qilish. Bunda majburiyatlarning uchinchi shaxslar tomonidan bajarilishi Ijrochini mazkur Shartnomaga shartlarining bajarilishi bilan bog‘liq javobgarlikdan ozod qilmaydi;

3.3. Buyurtmachi majburiyatları:

3.3.1. Ijrochi bilan Ishlarni bajarish muddatlarini kelishish va tasdiqlash;

3.3.2. Ishlar bahosi bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish.

3.3.3. Ijrochi tomonidan bajarilgan Ishlarni ishlar bajarilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalarga ko‘ra qabul qilib olish;

3.3.4. Ishlar bajarilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaga taqdim qilingan kundan keyingi kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida e’tirozlar bildirilmagan taqdirda Ishlar Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Shartnomaga shartlariga muvofiq o‘z vaqtida va sifatlari xizmat ko‘rsatilishini talab qilish;

3.4.2. Ishlar bajarilishining borishi to‘g‘risida Ijrochidan ma’lumot olish;

3.4.3. Shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda Shartnomani bekor qilish.

#### **4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI**

4.1. Tomonlar Shartnomaga bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq javobgar bo‘ladilar.

4.2. Ijrochi tomonidan Shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan va/yoki Ijrochi tomonidan Ishlar ishlarni bajarish muddati kechtirilgan taqdirda, Ijrochi kechiktirilgan har bir kun uchun Ishlar umumiyligi bahosining 0,01 foizi hisobidan, biroq Ishlar umumiyligi bahosining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima to‘laydi.

4.3. Ijrochining bajargan Ishlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish muddati buzilgan taqdirda, Buyurtmachi to‘loving kechiktirilgan har bir kuni uchun to‘lanmagan summaning 0,01 foizi miqdorida, biroq Ishlar bahosining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima to‘laydi.

4.4. Jarimani to‘lash Tomonlarni Shartnomaga yuzasida o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar, agar ular muzokaralar yo‘li bilan hal etilmagan bo‘lsa, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

4.6. Ijrochining ushbu Shartnomaga ko‘ra suratga olish ishlarni sifatsiz bajarganligi oqibatida buyurtachiga yetkazilgan yoxud kelgusida yetkazilishi mumkin bo‘lgan har qanday zarar Ijrochi tomonidan to‘liq hajmda qoplanadi.

4.7. Ijrochining ushbu Shartnomaga ko‘ra barcha olinayotgan (videorolikda ko‘rsatilayotgan) obyektlarning tarixiy dalilligi (asl ko‘rinishi qayta tiklash) tarixshunos olimlarning xulosalariga asoslangan bo‘lishi, va bu xulosalar Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga original nusxada taqdim etilishi shart.

#### **5 KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV**

5.1. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablardan, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni

sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligidan xabardor ekanliklarini kafolatlaydilar.

5.2. Tomonlar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarish chog'ida o'z vakillari (xodimlari) tomonidan manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radilar.

5.3. Mazkur Shartnoma yuzasidan majburiyatlarni bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra pora berish/pora olish, tijoriy pora berish deb baholanuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini har qanday ravishda buzuvchi xatti-harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

## 6. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan, Tomonlar, agar bu favqulodda vaziyatlar oqibatida yuzaga kelganligini isbotlasalar, ozod qilinadilar.

6.2. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Shartnomaning amal qilish muddati ushbu favqulodda vaziyatlarning davomiyligiga qarab tegishli davrga uzaytiriladi.

## 7. SHARTNOMA MUDDATI

6.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar imzolaganlaridan boshlab kuchga kiradi va 2022-yilning 31-dekabrgacha amal qiladi.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Tomonlar ushbu Shartnomaning shartlarini to'g'ri bajarish uchun va amaldagi qonunchilikka muvofiq, mazkur Shartnomada, uning ilovalari va hisob fakturalarda keltirilgan o'z shaxsiy ma'lumotlarining qayta ishlanishi, tarqatilishi va ulardan foydalanimishiga o'zlarining roziliklarini berdilar.

7.2. Tomonlarning shaxsiy ma'lumotlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishiga faqatgina amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

7.3. Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi, bunda Buyurtmachi Ishlar bahosini to'liq to'lagandan so'ng, uning majburiyatları to'liq bajarilgan hisoblanadi, shuningdek Ijrochi Buyurtmachining topshirig'i va ko'rsatmalari asosida Ishlarni to'liq bajargan taqdirda, uning majburiyatları to'liq bajarilgan hisoblanadi.

7.4. Shartnomaga kiritilagan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtiriladi, Tomonlar tomonidan imzolanadi va Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.5. Shartnoma Tomonlarning kelishivi bilan, shuningdek Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin.

7.6. Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi tayanadilar.

7.7. Mazkur Shartnoma 2 asl nusxada o'zbek tilida tuzildi va Tomonlarning har birida bir nusxadan saqlanadi.

## TOMONLARNING REKVIZITLARI, MANZILI VA IMZOLAR:

**Buyurtmachi:**

**Ijrochi:**

«Milliy PR-markazi» DUK

**Manzil:** Toshkent sh., Oybek, 18

**Stir:** 204799073, **MFO:** 00847

**H/R:** 20210000404303131001

Bank: TIF Milliy bank

Yashnobod filiali

Tel (95) 195-21-07

Direktor

**D.M.Samandarov**